

**BASICS OF LANGUAGE SCIENCE AMONG UZBEKS*****U. P. Lafasov****PhD., associate professor**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** Okuz, language, between two rivers, Semizkent, Uzbeks.**Abstract:** In this article, analyzes and comments are given about the history and development of the basics of linguistics in Uzbeks.**Received:** 20.08.22**Accepted:** 22.08.22**Published:** 24.08.22**O'KUZBEKLARDA TIL ILMINING ASOSLARI*****U. P. Lafasov****f.f.n., dotsent**Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** O'kuz, til, ikki daryo ortalig'i, Semizkent, o'zbeklar.**Annotatsiya:** Ushbu maqlolada o'kuzbeklarda til ilmining asoslari tarixi va rivojlanishi haqida tahlillar va mulohazalar berilgan.**ОСНОВЫ ЯЗЫКОЗНАНИЯ У УЗБЕКОВ*****Ю. П. Лафасов****PhD, доцент**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ****Ключевые слова:** Окуз, язык, междуречье, Семизкент, узбеки.**Аннотация:** В данной статье даются анализы и комментарии об истории и развитии основ языкоznания на узбекском языке.

## KIRISH

Har bir inson o‘z Vatanini sevadi. Ona yurtining tarixini yaxshi bilishni istaydi. Dunyo tamadduniga **O‘kuz** (*Amudaryo*) hamda **Inju O‘kuz** (*Sirdaryo*), ya’ni **Ikki daryo oralig‘i** ulkan hissa qo‘sghan va nufuz jihatdan Misr bilan baravarlasha oladigan mintaqasi hisoblanadi. Ushbu qadimiy hudud Buyuk Turonning markazi edi. Buyuk Turonning poytaxti **Semizkent** (*Samarqand*) shahri bo‘lgan. Bu joy aynan O‘zbekiston hududiga to‘g‘ri keladi. Bu yerda yashagan **o‘kuzbeklar**, ya’ni **o‘zbeklar** (*qutjilar, naymanlar, qo‘ng‘irotlar, qiyotlar uruqlari*) esa turkiylarning aslzodalarini hisoblanadi. Ular barcha turkiy ellarning boshini birlashtirib, tashqi dushmanlardan ozod qilib Turon davlatchiligiga tamal toshini qo‘yishgan. O‘sha davlatchilik asoslari asrlar osha yuksalib hozirgacha davom etib kelmoqda. Turkiylarning barcha sulolalari o‘kuzbeklarga tegishli va ular o‘zaro qarindosh bo‘lishgan.

## ASOSIY QISM

Taniqli olim Abduqahhor Ibrohimov sho‘ro davrida bir-biriga dushman sifatida ko‘rsatilgan sulolalar, jumladan, shayboniylarning temuriylar bilan qon-qarindosh ekanligini tarixiy omillar orqali aniqlab bergan. Ushbu dalil ham sho‘ro doimo turkiy xalqlarni maydalab tashlash siyosatini olib borganini tasdiqlaydi. **Ikki daryo oralig‘i** (*O‘kuziya*) kishilik madaniyati tarixida eng qadimiy beshiklardan biri ekanligi ma’lumdir. Arxeologik qazilmalar ushbu hududda eramizdan ko‘p ming yillar ilgari odamlar yashaganini isbotlab bergan. **Yofas**ning zaboni bo‘lgan **turkiy til** jahondagi ilk uch tilning bittasi hisoblanadi. Alisher Navoiy hazratlari ham buni qyudagicha e’tirof etgan: *Turkiy va forsiy hamda hindiy asl tillarning manbaidurki, Nuh payg‘ambar salavotullohi alayhaning uch o‘g‘lig‘akim, Yofas va Som hamda Homga yetishur.* Hozir dunyo tilshunoshligida qo‘llanayotgan amaliy grammatika nazariyasiga **hindlar** tamal toshini qo‘yishgan. Ular bu nazariyani “**ot+ot**” va “**ot+fe’l**” qolipi negizida so‘z turkumlari doirasini sharhlab berishgan. Ushbu nazariyani o‘zgarishsiz holida qabul qilgan **yunonlar** asl holicha ishlatganlar. Mazkur qolipni til sarfi uchun asos qilib olgan **arablar** o‘z tillariga moslashtirib “**ism+ism**” va “**ism+fe’l**” shaklida qo‘llay boshlaganlar. **Ruslar** esa grammatikaga oid nazariyani bevosita yunonlar va arablardan ko‘chirishgan. **Turkiy xalqlar** arablardan oziqlangan, ammo **turkiylashgan grammatik** qolip XX asrgacha amalda bo‘lgan. XX asrning boshida o‘zbek xalqining buyuk tilshunosi **Abdurauf Fitrat** (1886-1938) hozirgi o‘zbek adabiy tilining **ohoriy grammatikasini** tilimizning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tilshunoslik mezonlarig ravishda qaytadan yozgan. Shu asnoda tilimizning nahv-sarfida yangi davr boshlangan. Abdurauf Fitrat til ilmidagi “**termin bir so‘zdan iborat bo‘lishi kerak**” degan oltin qoidaga amal qilgan holda o‘zbek tilidagi asosiy grammatik terminlarning barchasini yagona so‘z shakliga keltirgan. Bu esa **o‘zbeklar** hech qachon grammatik qoidalarni ruslardan ko‘chirmaganligini to‘liq tasdiqlaydi. Shu bilan birga o‘zbek tilshunosligining dunyo tilshunosligidagi mustahkam o‘rnini belgilab beradi. Ulug‘ olim Abdurauf Fitratning uyuk hizmati natijasida o‘zbek milliy tilining

grammatik sathlari boshqa tillardan aniq farqlandi va mukammalligi bilan yuqori darajaga ko‘tarilgan. Jumladan, o‘zbek tilidagi so‘z turkumlarining nomlanishi buni aniq ko‘rishimiz mumkin. Masalan: *ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe’l*. Demak, shu paytgacha bir guruh olimlar tomonidan ilgari surilgan “o‘zbek tili grammatikasi rus tili grammatikasidan ko‘chirilgan” degan soxta da’vo butunlay asossiz ekanligi aniqdir. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining grammatik qoidalari va asosiy terminlari o‘zbek olimi Abdurauf Fitratning sa’y-harakatlari bilan qaytadan amalga kiritilgan. Fitrat turkiy tilning rivojiga ulkan hissa qo‘sghan ulug‘ olimlar Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy va asarlari hamda nomlari bizning davimizgacha yetib kelmagan mutafakkirlarning ijodiy ishlaridan bahra olgan. O‘zi bilan davrdosh bo‘lgan *Shokirjon Rahimiyy* (1893-1938) va *Qayum Ramazon* (1900-1938) kabi tilshunoslarning yordamiga tayangan. Qatag‘on sababli juda ko‘p mashhur tilshunoslar(*Abdurauf Fitrat, Y.D.Polivanov*) qatl etilgan. Keyingi davrlarda ularning aniq nazariy asoslarga tayangan ilmiy qarashlari inkor etilgan yoki o‘zlashtirilgan. Sho‘rolar shu maqsad yo‘lida ularning ilmiy nazariyalarini yo‘qqa chiqarish uchun boshqa millat vakili bo‘lgan olimlarni ishga solganlar. Natijada keyin yaratilgan barcha kitoblar sho‘ro mafkurasiga xizmat qila boshladi. O‘zga millat vakili bo‘lgan tilshunoslarning asosiy maqsadi turkiy xalqlarni maydalash va ularni aslzoda qatlidan ajratib tashlash edi. Ular bu borada tinmay xizmat qilganlar. Shu asnoda turkiylarning aslzoda qatlamlari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilib, dushman sifatida ko‘rsatilgan tarixlar to‘qila boshlangan. Til ta’limida esa soxta nazariyalar ilgari surilgan. Qatag‘ondan qo‘rqqan o‘zbek olimlari esa sukut saqlashdan nariga o‘ta olmadilar. Keyingi davrda yozilgan o‘quv adabiyotlarida o‘zbek tiliga manbasi bo‘lmagan qarluq lahja asos bo‘lgan, degan nazariya singdirilgan va bu hol hozir ham davom etmoqda. Bu asossiz nazariyaga barham beish vaqt keldi, deb o‘ylaymiz.

## XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil bo‘lgandan so‘ng sho‘rodan meros qolgan turkiylarning aslzoda etnik qatlamlari hisobga olinmagan holda yozilgan yolg‘on tarix va hozirgi o‘zbek tiliga asos bo‘lgan lahja haqidagi uydirmalarga qarshi chiqishlar boshlandi. Ammo bu soxtaliklarga hali to‘liq barham berilmadi. Mazkur yolg‘on tarix va hozirgi o‘zbek tiliga asos bo‘lgan lahja haqidagi uydirmalar butunlay yo‘qotilmadi.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ona tilimizga alohida e’tibori va hurmati bois tilimizning nufuzi qayta tiklanyapti. Prezidentimizning BMTdag‘i o‘zbek tilidagi nutqini eshitgan butun dunyodagi o‘zbeklarning boshi osmonga yetdi. Endi tilimiz bilan bog‘liq soxta nazariyalarni ilmiy asoslangan dalillar bilan to‘g‘rilash vaqt keldi, deb o‘ylaymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- Махмуд Кошғарий. “Девону луғотит турк” асари, 3 томлик, 1-том, Тошкент: “Фан” нашриёти, 1960, 91-бет.
- Абдуқаҳҳор Иброҳимов. Бизким, ўзбеклар. Тошкент: “Шарқ”, 2011.

3. Муролқосим Абдиев. Касб-корни ифодаловчи шахс номларининг ясалиш асослари. Тошкент: “Тафаккур”. 2015. 19-бет.
4. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Муҳокамат ул-луғатайн. 16-жилд. Тошкент, “Фан”. 2000, 7-бет.
5. Abdurauf Fitrat. “O‘qi” (“O‘quv”, 1917), “Ona tili” (Shokirjon Rahimiya va Qayun Ramazon bilan hamkorlikda, 1918), “Sarf” (“Morfologiya”, 1925), “Nahv” (“Sintaksis”, 1926).
6. Lafasov, U. (2021). The Migration of the Japanese from the Center of Turan to the East. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol*, 27(1).
7. Lafasov, U. P. (2020). Relationship Between Turks And Japanese. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(2), 3935-3938.
8. Lafasov, U. P. (2021, December). THE HARMONY OF WORDS AND IMAGES IN THE WORK OF ABDULLAH QADIRI. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 98-101).
9. ЛАФАСОВ, У. П. (2021). THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN THE INTERVALUE-CENTER OF TURON. *Иностранные языки в Узбекистане*, (1), 264-275.
10. Лафасов, У. (2020). Али Кушчи и его научное наследие. *Turkic Studies Journals*, 2(1), 53-62.
11. Lafasov, U. P. (2020). The King of Uzbek Prose. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05).
12. ЛАФАСОВ, У. П. (2019). ABDULLA KADIRI'S DISCOVERY AND SKILL OF USING WORDS. *Иностранные языки в Узбекистане*, (6), 200-212.
13. Лафасов, У. П. (1996). Способы выражения субъективной модальности в диалогической речи.
14. LAFASAOV, U. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙИЖОДИ: ТАҲЛИЛ ВА ТАВСИФ. *Avrasya Uluslararası Araştırmalar Dergisi*, 5(11), 93-99.
15. Karimov, N. (2022). IMPORTANCE OF STUDYING AND PROMOTING ORIENTAL CULTURE AND HERITAGE. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2(03), 28-33.
16. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.
17. Ziyamuhamedov, J. (2021). ARTISTIC DETAILS IN PU SUNG-LING'S CREATIVE STYLE. *Philology Matters*, 2021(1), 22-36.